



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING QARORI

2026-yil 6-aprel

N° 2115

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zoliciga nomzodlarni tavsiya etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7,17-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-noyabrdagi PF-227-son Farmoniga muvofiq

QAROR QILADI:

1. "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zoliciga nomzodlarni tavsiya etish tartibi to'g'risida"gi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengashi raisi



X.Yodgorov

O'zbekiston Respublikasi sudyalari oliy
kengashining 2026-yil 6-apreldagi
2115-son qaroriga ilova

**O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashining jamoatchilik asosida
faoliyat yurituvchi a'zolariga nomzodlarni tavsiya etish tartibi to'g'risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom "Sudyalari oliy kengashi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-noyabrdagi PF-227-sonli "Sudyalari hamjamiyati organlari faoliyatining samaradorligi va ochiqiligini oshirish hamda sud mustaqilligi kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashining (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zolariga nomzodlarni tavsiya etish tartibini belgilaydi.

2. Kengashning jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zosi – Kengashning faoliyatida jamoatchilik asosida ishtirok qiluvchi, Kengashning majlislarida uning doimiy a'zolari bilan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan a'zosi hisoblanadi.

3. Kengashning jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zolari Kengash tomonidan mazkur nizomda belgilangan tartibda tavsiya etiladi.

**2-bob. Kengashning jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zolariga
qo'yiladigan talablar**

4. Kengashning jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zolariga nomzod sifatida O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, huquq sohasidagi ilmiy va oliy ta'lim tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarida doimiy asosda faoliyat yurituvchi fuqarolar tavsiya etilishi mumkin.

5. Huquq sohasidagi ilmiy va oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan Kengashning jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zolariga beriladigan nomzodlarni tavsiya etishda mazkur nomzodlarning ilmiy salohiyati, ish tajribasi hamda sohada erishgan yutuqlari inobatga olinadi.

6. Fuqarolik jamiyati institutlaridan Kengashning jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zorigiga beriladigan nomzodlarni tavsiya etishda mazkur fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish sohasida to'plagan ish tajribasi va faoliyati inobatga olinadi.

3-bob. Kengashning jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zolarini tavsiya etish

7. Kengashning jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zorigiga nomzodlar huquq sohasidagi ilmiy va oliy ta'lim tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan Kengashga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

8. Kengashning Sudyalar korpusini shakllantirish sho'basini Kengashning jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zorigiga nomzodlarning hujjatlarni to'plash uchun mas'ul hisoblanadi.

9. Huquq sohasidagi ilmiy va oliy ta'lim tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari jamoasi tomonidan nomzodni yuzasidan Kengashga tavsiyanoma kiritiladi.

Tavsiyanomada nomzodning shaxsiga oid ma'lumotlar, ilmiy darajasi va ish tajribasini tasdiqlaydigan tegishli hujjatlar, shuningdek, zaruratga ko'ra, boshqa hujjatlar ilova qilinadi.

10. Kengashning jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zorigiga nomzodlarni tavsiya etish masalasini Kengash majlisida ko'rib chiqish natijasi bo'yicha ushbu nomzodlar yuzasidan tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taklif kiritiladi.

11. Kengash tomonidan kiritilgan taklifni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'qullagan taqdirda va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashning jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi a'zosini saylagandan so'ng, nomzod Kengash a'zosi sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi.